



PRAGMALINGVISTIKA DOIRASIDA NUTQ AKTLARI: INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA

Jumoboyeva Shohzoda Dilmurod qizi

O'zbekiston Milliy universiteti
Xorijiy Filologiya fakulteti
1-bosqich talabasi,

Ilmiy rahbar: **Ayupova Lobar Murodovna**

O'zbekiston Milliy universiteti
Xorijiy Filologiya fakulteti
Ingliz tilshunosligi kafedrası
o'qituvchisi,

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19642288>

Kalit so'zlar: pragmalingvistika, nutq aktlari, illokutiv akt, kommunikatsiya, kontekst, ingliz tili, o'zbek tili

Ushbu maqolada pragmalingvistika doirasida nutq aktlari nazariyasi tahlil qilinadi. Unda J. Austin va J. Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasining asosiy jihatlari yoritilib, nutq aktlarining turlari va ularning kommunikativ jarayondagi roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida nutq aktlarining ifodalanishi misollar asosida tahlil qilinib, ularning o'xshash va farqli tomonlari aniqlanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda tilni faqat grammatik va leksik jihatdan o'rganish yetarli emasligi tobora ayon bo'lib bormoqda. Til, avvalo, insonlar o'rtasidagi muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi va u real nutq jarayonida turli omillar ta'sirida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, pragmalingvistika tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida til birliklarining qo'llanish jarayonini, ularning kontekstga bog'liq holda qanday ma'no anglatishini o'rganadi.

Pragmalingvistika nutq ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar, kommunikativ maqsad va vaziyat kabi omillarni hisobga olgan holda tilni tahlil qiladi. Bu yo'nalishda til faqat axborot yetkazish vositasi emas, balki ta'sir o'tkazish, fikr bildirish, buyruq berish yoki iltimos qilish kabi amaliy harakatlarni bajarish vositasi sifatida ham qaraladi. Shu sababli pragmalingvistika inson muloqotining mazmunini chuqurroq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pragmalingvistika tilshunoslikning nisbatan yangi, ammo muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u til birliklarining real nutq jarayonida qanday qo'llanilishini o'rganadi. Ushbu soha tilning faqat grammatik yoki leksik tizimini emas, balki uning amaliy qo'llanishini, ya'ni so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tahlil qiladi. Pragmalingvistika tilni kontekst bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqadi.

Kontekst tushunchasi pragmalingvistikaning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Bir xil gap turli vaziyatlarda turlicha ma'no anglatishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "It's cold here" gapi oddiy xabar berish bo'lishi mumkin, ammo ma'lum vaziyatda bu gap derazani yopish haqidagi iltimos sifatida ham tushunilishi mumkin. O'zbek tilida ham "Bu yer sovuq ekan" gapi kontekstga qarab

oddiy fikr yoki yashirin iltimos ma'nosini anglatadi. Ya'ni huddi ingliz tilida ma'no anglatgan kabi o'zbek tilida ham xona sovib ketganligini yoki derazani yopish kerakligini bildiruvchi ma'nolarni kasb etishi mumkin. Pragmalingvistika insonlarning muloqot jarayonidagi niyatini, maqsadini va nutq orqali ko'rsatiladigan ta'sirni o'rganadi. Shu boisdan u kommunikatsiyaning samaradorligini tushuntirishda muhim rol o'ynaydi. Til orqali faqat ma'lumot berish emas,



balki buyruq berish, iltimos qilish, maslahat berish kabi turli kommunikativ vazifalar ham bajariladi. Bu esa nutq aktlari nazariyasi bilan bevosita bog'liqdir.

G. Yule pragmlingvistikani "so'zlovchi ma'nosini o'rganish" sifatida ta'riflaydi va bu orqali nutqning asl mazmuni ko'pincha kontekst orqali aniqlanishini ta'kidlaydi [4,3]. Demak, pragmlingvistika til va inson omili o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berishga xizmat qiladi.

Nutq aktlari nazariyasi pragmlingvistikaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u til orqali bajariladigan harakatlarni o'rganadi. Ushbu nazariyaga ingliz faylasufi J. Austin tomonidan asos solingan. U o'zining mashhur "*How to do things with words*" asarida gapirish jarayoni nafaqat axborot uzatish, balki muayyan harakatni bajarish ekanligini ta'kidlaydi. Uming fikricha, "to say something is to do something", ya'ni har bir nutq birliklari orqali inson muayyan amalni bajaradi [1,12].

J. Austin nutq aktlarini uch turga ajratadi: lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar. Lokutiv akt – bu gapning bevosita, lug'aviy ma'nosini ifodalaydi. Masalan, ingliz tilidagi "close the door" gapi eshikni yopish haqida oddiy buyruqni bildiradi. Illokutiv akt esa so'zlovchining asl niyatini ifodalaydi, ya'ni buyruq, iltimos, maslahat, yoki taklif kabi kommunikativ maqsadni anglatadi. Perlokutiv akt esa nutqning tinglovchiga ko'rsatgan ta'siri bilan bog'liq bo'lib, masalan, so'zlovchi "bu yer sovuq ekan" degan gapidan keyin tinglovchining eshikni yopishi yoki rad etishi bilan nomoyon bo'ladi [1,34].

Keyinchalik J. Searle Austin g'oyalarini rivojlantirib, nutq aktlarini yanada tizimlashtiradi. U nutq aktlarini ularning funksiyasiga ko'ra bir necha turlarga ajratadi: assertivlar (xabar berish), direktivlar (buyruq va iltimos), kommisivlar (va'da berish), ekspressivlar (his-tuyg'ularni ifodalash) va deklarativlar (holatni o'zgartiruvchi nutq aktlari) [2,23].

Masalan, ingliz tilida:

- "I promise to help you" - va'da (commissive)
- "Open the window!" – buyruq (directive)
- "I am happy to see you" – hissiy ifoda (expressive)

O'zbek tilida esa:

- "Senga yordam berishga vada beraman" – va'da
- "Derazani oching" – buyruq
- "Sizni ko'rganimdan xursandman" – hissiy ifoda

Ko'rinib turibdiki, har ikkala tilda ham nutq aktlari orqali nafaqat ma'lumot uzatiladi, balki turli kommunikativ maqsadlar amalga oshiriladi. Bu esa nutq aktlari nazariyasining universalligini ko'rsatadi.

Nutq aktlari har bir tilda muloqotning ajralmas qismi bo'lib, ular orqali insonlar o'z fikrini ifodalaydi, boshqalarga ta'sir ko'rsatadi va turli kommunikativ maqsadlarni amalga oshiradi. Ingliz va o'zbek tillarida nutq aktlari umumiy jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ularning ifodalanish usullarida ayrim farqlar mavjud.

Avvalo, direktiv nutq aktlarini ko'rib chiqamiz. Ingliz tilida buyruq va iltimoslar ko'pincha muloyim shaklda ifodalanadi. Masalan, "Open the door" to'g'ridan-to'g'ri buyruq bo'lsa, "Could you open the door, please?" shakli iltimos sifatida qo'llaniladi. Bu yerda grammatik shakl savol ko'rinishida bo'lsa-da, aslida u direktiv nutq aktini, ya'ni iltimosni bildiradi. O'zbek tilida esa "Eshikni oching" buyruq hisoblanadi, "Iltimos, eshikni ochib yuboring" esa muloyim iltimos shaklidir.



Shuni ta'kidlash kerakki, ingliz tilida muloyimlik strategiyalari keng qo'llaniladi va ular nutqning muhim pragmatik xususiyati hisoblanadi. G. Leech muloyimlik prinsiplarini pragmalingsvistikaning asosiy jihatlaridan biri sifatida ko'rsatadi [5, 81-bet]. O'zbek tilida esa muloyimlik ko'pincha hurmat qo'shimchalari va so'zlar orqali ifodalanadi, masalan: "-ing", "iltimos", "marhamat".

Komissiv nutq aktlariga misol sifatida va'da berish holatini ko'rib chiqish mumkin. Ingliz tilida "I will help you" yoki "I promise to help you" kabi gaplar orqali va'da ifodalanadi. O'zbek tilida esa "Men sizga yordam beraman" yoki "Sizga yordam berishga va'da beraman" shakllari qo'llaniladi. Har ikkala tilda ham bu nutq akti so'zlovchining kelajakdagi harakatini bildiradi.

Ekspressiv nutq aktlari insonning hissiyotlarini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, ingliz tilida "Thank you", "I am sorry", "Congratulations" kabi iboralar keng qo'llaniladi. O'zbek tilida esa "Rahmat", "Kechirasiz", "Tabriklayman" kabi ifodalar ishlatiladi. Bu turdagi nutq aktlari ikki tilda ham o'xshash bo'lib, ular madaniy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, ayrim farqlar ham mavjud. Ingliz tilida ko'pincha bilvosita nutq aktlari ishlatiladi. Masalan, "It's hot here" gapi aslida derazani ochish yoki konditsionerni yoqish haqidagi iltimosni anglatishi mumkin. O'zbek tilida ham shunga o'xshash holat mavjud: "Issiq bo'lyapti" gapi yashirin iltimos sifatida tushunilishi mumkin. Bunday holatlar kontekstga bog'liq bo'lib, pragmatik ma'no aynan vaziyat orqali aniqlanadi [4, 45-bet].

Umuman olganda, ingliz va o'zbek tillarida nutq aktlari o'xshash kommunikativ vazifalarni bajaradi, biroq ularning ifodalanishida til va madaniyatga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi. Bu esa pragmalingsvistik tadqiqotlarda tillararo taqqoslashning muhimligini ko'rsatadi. Nutq aktlari har bir tilda muloqotning ajralmas qismi bo'lib, ular orqali insonlar o'z fikrini ifodalaydi, boshqalarga ta'sir ko'rsatadi va turli kommunikativ maqsadlarni amalga oshiradi. Ingliz va o'zbek tillarida nutq aktlari umumiy jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ularning ifodalanish usullarida ayrim farqlar mavjud.

Avvalo, direktiv nutq aktlarini ko'rib chiqamiz. Ingliz tilida buyruq va iltimoslar ko'pincha muloyim shaklda ifodalanadi. Masalan, "Open the door" to'g'ridan-to'g'ri buyruq bo'lsa, "Could you open the door, please?" shakli iltimos sifatida qo'llaniladi. Bu yerda grammatik shakl savol ko'rinishida bo'lsa-da, aslida u direktiv nutq aktini, ya'ni iltimosni bildiradi. O'zbek tilida esa "Eshikni oching" buyruq hisoblanadi, "Iltimos, eshikni ochib yuboring" esa muloyim iltimos shaklidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, ingliz tilida muloyimlik strategiyalari keng qo'llaniladi va ular nutqning muhim pragmatik xususiyati hisoblanadi. G. Leech muloyimlik prinsiplarini pragmalingsvistikaning asosiy jihatlaridan biri sifatida ko'rsatadi [5, 81-bet]. O'zbek tilida esa muloyimlik ko'pincha hurmat qo'shimchalari va so'zlar orqali ifodalanadi, masalan: "-ing", "iltimos", "marhamat".

Komissiv nutq aktlariga misol sifatida va'da berish holatini ko'rib chiqish mumkin. Ingliz tilida "I will help you" yoki "I promise to help you" kabi gaplar orqali va'da ifodalanadi. O'zbek tilida esa "Men sizga yordam beraman" yoki "Sizga yordam berishga va'da beraman" shakllari qo'llaniladi. Har ikkala tilda ham bu nutq akti so'zlovchining kelajakdagi harakatini bildiradi.

Ekspressiv nutq aktlari insonning hissiyotlarini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, ingliz tilida "Thank you", "I am sorry", "Congratulations" kabi iboralar keng qo'llaniladi. O'zbek tilida esa "Rahmat", "Kechirasiz", "Tabriklayman" kabi ifodalar ishlatiladi. Bu turdagi nutq aktlari ikki tilda ham o'xshash bo'lib, ular madaniy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.



Shu bilan birga, ayrim farqlar ham mavjud. Ingliz tilida ko'pincha bilvosita nutq aktlari ishlatiladi. Masalan, "It's hot here" gapi aslida derazani ochish yoki konditsionerni yoqish haqidagi iltimosni anglatishi mumkin. O'zbek tilida ham shunga o'xshash holat mavjud: "Issiq bo'lyapti" gapi yashirin iltimos sifatida tushunilishi mumkin. Bunday holatlar kontekstga bog'liq bo'lib, pragmatik ma'no aynan vaziyat orqali aniqlanadi [4, 45-bet].

Umuman olganda, ingliz va o'zbek tillarida nutq aktlari o'xshash kommunikativ vazifalarni bajaradi, biroq ularning ifodalanishida til va madaniyatga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi. Bu esa pragmatik tadqiqotlarda tillararo taqqoslashning muhimligini ko'rsatadi.

Maqolada pragmatik doirasida nutq aktlari nazariyasining asosiy jihatlari yoritildi hamda uning til va muloqot jarayonidagi o'rni tahlil qilindi. Nutq aktlari nazariyasi til birliklarining faqat grammatik tuzilishini emas, balki ularning kommunikativ vazifasini, ya'ni so'zlovchining niyati va tinglovchiga ko'rsatiladigan ta'sirini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatildi.

Maqolada keltirilgan misollar asosida ingliz va o'zbek tillarida nutq aktlarining umumiy funksional xususiyatlari mavjudligi aniqlandi. Har ikkala tilda ham buyruq, iltimos, va'da va hissiy ifodalar kabi nutq aktlari keng qo'llaniladi. Shu bilan birga, ularning ifodalanishida ma'lum pragmatik farqlar kuzatiladi. Jumladan, ingliz tilida muloyimlik va bilvosita ifoda vositalari ko'proq qo'llanilsa, o'zbek tilida hurmat va muomala shakllari orqali ifoda etish ustunlik qiladi.

Shuningdek, nutq aktlarini to'g'ri anglashda kontekst muhim omil ekanligi alohida ta'kidlandi. Bir xil gap turli vaziyatlarda turlicha ma'no kasb etishi nutqning pragmatik xususiyatini namoyon etadi. Bu esa muloqotni to'g'ri tushunish uchun til birliklaridan tashqari vaziyat, ijtimoiy munosabatlar va madaniy omillarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, nutq aktlari nazariyasi pragmatikaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u tilning amaliy qo'llanilishini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ingliz va o'zbek tillari misolida ko'rib chiqilgan tahlillar ushbu nazariyaning universalligini hamda har bir tilga xos pragmatik xususiyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

References:

1. Austin, J. L. How to Do Things with Words. Oxford: Oxford University Press, 1962.
2. Searle, J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
3. Searle, J. R. Expression and Meaning. Cambridge: Cambridge University Press, 1979.
4. Yule, G. Pragmatics. Oxford: Oxford University Press, 1996.
5. Leech, G. Principles of Pragmatics. London: Longman, 1983.